



## TALABA QIZLARDA TAZYIQ VA TAJOVUZGA QARSHI DUNYOQARASHNI SHAKLLANTISH

**Uktamova Umida Sunatullaevna,**  
Jizzax Davlat Pedagogika instituti

### Annotatsiya:

Maqolada talaba qizlarda tazyiq va tajovuzga qarshi dunyoqarashni shakllantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish va uning mazmun mohiyati, talaba qizlarning oilaviy muammolar yechimi oiladagi sog'lom psixologik muhit yaratishiga, oilaviy zo'ravonlik va uning kelib chiqish sabablari, zo'ravonlik oqibatlari, oilaviy zo'ravonlikni oldini olish masalalari yoritib berilgan.

### Kalit so'zlar :

Tazyiq va tajavuz, mehr-oqibat, oilaviy zo'ravonlik, g'amxo'rlik, kamsitish, adolatsizlik, tajovuzkor, ishonchsizlik, joniga qasd qilish hulqi, o'z – o'zini vayron qilish, ayibdorlik hissi, norozilik.

Barchamizga ma'lumki, yaqin o'tmishda jamiyatda xotin-qizlarga bo'lgan munosabatlar qoniqarli darajada bo'lmagan. Ular og'ir mehnatga jalb etilishi, haq-huquqlarining poymol qilinishidan tashqari ba'zi manfur kimsalarning tazyiq va tajovuzlariga uchragan. Ammo ming shukrki hozirgi kunga kelib prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan yurtimizdagi xotin-qizlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Xotin – qizlarning turmush tarzini yaxshilash, haq-huquqlarini himoya qilish borasida keng islohotlar amalga oshirilmogda. Hozirgi kunda ham bu islohotlar amaliy ifodasini topib, davomiy bo'lib bormogda. Bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinganini aytsak bo'ladi. Ushbu farmonda sohadagi ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog'lomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligi takidlab o'tilgan hamda ushbu kamchiliklarni bartaraf etish choralari belgilab berilgan. Ana shu hujjatlar asosida ilgari imkoniyatlari cheklanib, faoliyati susayib qolgan xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari butunlay yangi asosda tashkil etildi. Jumladan, xotin-qizlarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish borasidagi faoliyatni yuqorii darajada tashkil etish, onalar kasalligi va perinatal kasalliklar profilaktikasi va ularning oldini olish bo'yicha samarali tizimli ishlar ayniqsa, chekka qishloq hududlarida olib borilishi nazarda tutilgan.

Zero buyuk allomamiz Amir Temur ham kelin tanlashda barcha sifatlarga e'tibor berganligini, o'g'illari va kelinlari o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat va bir-birini tushunishga asoslangan bo'lishi va nabiralarning komil inson bo'lib voyaga yetishi uchun barcha kuch, g'ayrat va e'tiborini qaratganini ko'rishimiz mumkin.

Xalqimizda avvaldan qizlarga yoshligidan otasining so'zidan chiqmaslik, qarorlariga qarshi ish qilmaslik, kattalarning ruxsatisiz mustaqil qaror qabul qilmaslik kabilar singdirilgan. Shuning oqibatida jamiyatimizda ayol kishi ojiza, himoyasiz deb mensimay qarash, haq-huquqlarini poymol qilish, xohishlariga qarshi chiqib erta turmushga berish, to'y - hashamlarga, har-xil yig'inlarga jo'natmaslik, zo'ravonlik qilish va tazyiq o'tkazish holatlari ham ko'p bora uchrab turibdi. Afsuski ko'p hollarda ayollarimiz uyidan, turmush o'rtog'idan

shikoyat qilib chiqishni noshukurlik bo'ladi, Uydagi gap ko'chaga chiqmasligi kerak deb shunday achinarli hayotga ko'rinib, azoblarga chidab umr o'tkazadilar. Shu sababli ba'zi hollarda asab tolalarining charchashi oqibatida ayanchli bo'lgan hodisalarni sodir etadilar. Misol qilib aytadigan bo'lsak, orzusi cheksiz talaba qiz o'qishni nihoyasiga etkazmasdan oq uyiga sovchilar kelishni boshlaydi. Sovchilarning ishlari yengil kechish maqsadida qizning ota-onasiga va'dalar bilan ya'ni "O'zimiz o'qishini davom ettirishga kafolat beramiz" deb, amalga oshirishga ko'zi etmaydigan vadalarni berib kelin qilib tuylar qilishadi. To'ydan biroz muddat o'tgach esa va'dalar esdan chiqib kelinini uy ishlariga ko'mib tashlab o'qishni davom ettirishga sharoit yaratib berishmaydi. Keyinchalik ham bu holat tez-tez takrorlanadi. Qaynonasi esa turli bo'lar-bo'lmas gaplarni o'g'lining qulog'iga quyib kelinini o'qishga bormasligiga, uy ishlarini qilishiga o'g'lini ham ko'ndiradi. Talaba kelinimiz esa o'qishda o'qituvchilaridan, uyda esa qaynonasi va turmush o'rtog'idan tanbeh eshitadi. Buning oqibatida darslarni o'zlashtirmay, tengdoshlaridan ortda qolayotganidan, qaynonasining gap-so'zlaridan charchagan kelin bir kuni dars vaqtida hushini yuqotib shifoxonaga etkaztiriladi. Bu hodisadan habar topgan guruh murabbiyi masalani o'rganib chiqib, qaynonaga tushuntirish ishlari olib boradi, lekin qaynonasi tushunishni xohlamaydi. So'ngra guruh murabbiyi tomonidan yunalish rahbariyatiga, institut xotin-qizlar qo'mitasi raisiga, institut psixologi va murabbiylar kengashi raisiga habar beradi. Jamoa tomonidan kelishilib darsga bir-ikki kunga kelinining o'rniga qaynonasi chaqirilib dars jarayonlariga qatnashtiriladi. Bir haftadan so'ng qaynonasi darslar qanchalik muhimligini, o'zlashtirish murakkab jarayon ekanligini tushunib yetib keliniga darslari uchun sharoit yaratib beradi.

Jamiyatimizda bo'layotgan bunday ishlarga barchamiz birdek ma'sullik hissini tuygan holda yondashishimiz, o'zimizni chetga olmasligimiz kerak. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida maktablarda, mahallalarda ta'lim muassasalarida o'quvchi yoshlar va talaba qizlarga oilada va jamiyatda ayollarning o'rni, haq-huquqlari to'g'risida kengroq mazmundagi tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Birinchi navbatda biz qizlarimizga yangi kelin bo'lib tushgan xonadonlariga ko'nikib, moslashib ketishlari uchun nimalarga amal qilishlari kerakligini o'rgatishimiz kerak. Kelin bo'lib tushgan joyida qiynalmasligi, barchaning ko'nglini birdek tushunishi uchun uni yoshligidan boshlab oila qurishga to'g'ri yo'naltirib borishimiz kerak. Ko'pchilik qizlarimiz oila bekasi bo'lishi bilan bir qatorda oliy ta'lim muassasalari talabalari hamdir. Bunday qizlarimizning qaynona-qaynota xizmati, uy yumushlaridan ortib ilm o'rganishga intilishlarining o'zi quvonarli holat.

Talaba qizlarda tazyiq va tajovuzga qarshi dunyuqarashni shakllantirishda ta'limning innovatsion modeli sifatida juda ko'p innovatsion yangiliklarni misol qilib keltirsak bo'ladi. Bunga misol qilib, "Gender asosida zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakatlar" kompaniyasi doirasida zo'ravonlik qurbonlarini himoya qilish va ularga o'z vaqtida yordam berish maqsadida "Najot" mobil ilovasi ishga tushirildi. Ushbu ilova yordamida jabrlangan ayol va qizlarimiz psixolog onlayn yordamini olish, qiyin vaziyatlarda shifokor va advokat bilan maslahatlashish imkoniyatidan foydalanishlari mumkin. Yana ushbu ilovada "Yordam tugmasi", "Eng yaqin yordam markaziga xabar berish parametri", "Yordam markazlari", "Bilish muhim", bo'limlari ham mavjud. Bularning hammasi esa zo'ravonlik qurbonlari bo'lgan ayol qizlarimizga favqulotda vaziyatlarda tezkor yordam uchun mo'ljallangan. Qayd etilishicha har yili 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan har beshinchi ayol va qiz zo'ravonlik haqida xabar beradi. Yangi ma'lumotlarga ko'ra pandemiya boshlanganidan keyin ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlik tahdidi kuchaygani esa achinarli holatdir.[1]

O'zbekistonda zo'ravonlikdan jabrlangan ayollarga himoya orderi berish tartibi tasdiqlandi. 2019-yil sentabr oyida ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoyalash to'g'risida qonun imzolandi.[2] Ushbu qonunga ko'ra tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchi sodir etilgan

zo'ravonlik yoki tahdid haqida tegishli organlarga yohud sudga murojat etish, bepul huquqiy maslahat, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olish kabi huquqlarga ega. Masalan, sodir etilgan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan ayol yoki qiz yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash hamda ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etganda davlat boji to'lashdan ozod qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, qizlarimizni yoshlik chog'idan oilada, maktabda va boshqa ta'lim jarayonlarida oilaga, turmushga tayyorlab, to'g'ri tushunchalar berilsa, qizlarimiz turmushga chiqqanda qiynalmasdan yangi oilaga o'rganib ketishadi. Misol sifatida ko'pchik ota-onalar farzandi oliy o'quv yurtiga kirishi va o'qib bilim olishi uchun barcha yumushlardan ozod qilib faqat qo'shimcha darslarga e'tiborini qaratadilar. Natijada qizlarimiz uy-ro'zg'or ishlarida unchalik o'quvi bo'lmay qoladi. O'qishga kirganlaridan keyin esa hali talaba bo'lishiga qaramay turmushga berishadi. Kelinlik uyida ro'zg'or ishlari talaba kelinimizning zimmasiga tushadi, uy ishlariga va o'qishga ulgurmaydi. Qaynonasi esa ko'maklashish, to'g'ri tushunish o'rniga kelinidan norozi bo'ladi. Keyin oilada turli kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Bunday ko'ngilsiz hodisalar kelib chiqmasligi, oilada ajrimlar bo'lmasligi uchun qizlarimizni oilada va ta'lim muassasalarida oilaga tayyorlash va dunyoqarashini shakllantirish oldimizda turgan muhim vazifalardandir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Gazeta.uz" rasmiy kanali 7.12.2020 [1]
2. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'grisida" O'RQ-561-son. [2]
3. Uktamova, U., & Berdiyeva, S. (2020). THE ROLE OF COMMUNICATION IN PEOPLE'S RELATIONSHIPS AND WAYS OF LEARNING TO COMMUNICATE. Архив Научных Публикаций JSPI.
4. Uktamova, U. (2020). Талаба кизларни оила мустақамлигига эришишга тайёрлаш. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Uktamova, U. (2020). КИЧИК МАКТАВ YOSHIDA QOBILIYATNING PSIXOLOGIK TAVSIFI. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Uktamova, U. (2020). Ўқувчиларга маънавий-ахлоқий тарбия бериш орқали экологик маданиятини шакллантириш. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
8. Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.
9. Davurova, G. (2020). Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq etilishi. Архив Научных Публикаций JSPI.
10. Rasulova, D. (2020). YOSH OTA-ONALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.
11. Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKТАV YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1).
12. Hamrayeva, N. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ. Архив Научных Публикаций JSPI.
13. Qarshiboyeva, G. Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
14. Karshibaeva, G. A., & Eshmuratov, O. E. (2018). Факторы суицидального поведения, влияющие на формирование подросткового поведения. Молодой ученый, (49), 235-237.
15. Qarshiboyeva, G. XАЁТНИ СЕВИБ ЯШАНГ!. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-48.
16. Qarshiboyeva, G. ЯЗЫК И ФОРМИРОВАНИЕ ВЫСШИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ. Архив Научных Публикаций JSPI.

17. Qarshiboyeva, G.OILADA BOLALARNI XALQ OG 'ZAKI IJODI NA'MUNALARI ASOSIDA TARBIYALASH. Архив Научных Публикаций JSPI.
18. Qarshiboyeva, G.ПСИХОЛОГИК МАСЛАХАТ. Архив Научных Публикаций JSPI.
19. Каршибаева, Г. А. Суицидальное поведение-сложное социально-психологическое явление. In Психологические науки: теория и практика (pp. 37-39).
20. Каршибаева, Г. А. Психопрофилактические меры по предотвращению самоубийств у подростков. Молодой ученый, (49), 233-235.
21. Каршибаева, Г. А. Теоретическая основа проблемы психологических особенностей подростков с суицидальным поведением. Молодой ученый, (49), 230-233.
22. Каршибаева, Г. А., Норбекова, Б. Ш., & Туракулов, Л. Т. Суицид-это не просто способ обратить на себя внимание. European journal of education and applied psychology, (2).
23. Каршибаева, Г. А. Некоторые факторы преодоления суицидальных действий среди подростков. In Психология: традиции и инновации (pp. 68-71).
24. Karshiboeva, G. ХАРАКТЕРИСТИКИ МОТИВАЦИОННЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ ПОДРОСТКОВ С СУИЦИДАЛЬНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ. EurasianUnionScientists, 1(10 (79), 48-49.
25. Каршибаева, Г. А., & Шарофиддинов, А. (2018). Роль пословиц в воспитании детей. Молодой ученый, (49), 275-277.
26. Каршибаева, Г. А., Б. У. Расулов, Д. Р. Расулова, О. Э. Эшмуратов. Психологическая диагностика личностных и эмоциональных аспектов суицидального поведения подростка : непосредственный // Образование и воспитание. — 2018. — № 2 (17).
27. Qodirova, M. (2020). Voyaga yetmagan o'smirlar xulq atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni. Архив Научных Публикаций JSPI.
28. Qodirova, M. (2020). Особенности периода взросления подростка. Архив Научных Публикаций JSPI.
29. Qodirova, M. (2020). Bolalar idrokini rivojlantirishda mashg'ulotlarning o'rni. Архив Научных Публикаций JSPI.
30. Qodirova, M. (2020). РОЛЬ ЗАНЯТИЙ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ СПОСОБНОСТИ РАЗМЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ. Архив Научных Публикаций JSPI.
31. Qodirova, M. (2020). KICHIK MAKTAB YOSHI O 'QUVCHILARINI HAR TOMONLAMA SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Архив Научных Публикаций JSPI.
32. Qodirova, M. (2020). РОЛЬ ЗАНЯТИЙ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ СПОСОБНОСТИ РАЗМЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(41).  
извлечено от
33. Qodirova, M. (2020). Psixologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI, 14(1). извлечено от
34. Qodirova, M. (2020). KICHIK MAKTAB YOSHI O 'QUVCHILARINI HAR TOMONLAMA SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(41).
35. Qodirova, M. (2020). Особенности периода взросления подростка . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(41).
36. Qodirova, M. (2020). Shaxsning ichki konfliktlari va mexanizmlari. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(41).
37. Qodirova, M. (2020). Bolalar idrokini rivojlantirishda mashg'ulotlarning o'rni. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(41).
38. Qodirova, M. (2020). ЕВРАЗИЙСКИЙ СОЮЗ УЧЕНЫХ (ЕСУ) Ежемесячный научный журнал № 10 (79)/2020 Том 1, Серия: . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(95).  
извлечено от

39. Qodirova, M. (2020). Voyaga yetmagan o'smirlar xulq atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(41).
40. Dilshod, Y. (2020). Жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришда педагогик хурфикрликнинг роли. Архив Научных Публикаций JSPI.
41. Dilshod, Y. (2020). Талабаларда педагогик хурфикрликни ривожлантиришда тарихий асослардан фойдаланиш. Архив Научных Публикаций JSPI.
42. Dilshod, Y. (2020). ПЕДАГОГИК ХУРФИКРЛИКНИНГ ТАЛАБАЛАР ФАОЛИЯТИДАГИ РОЛИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
43. Dilshod, Y. (2020). Formation Of High Spiritual Qualities In Youth. Архив Научных Публикаций JSPI.
44. Dilshod, Y. (2020). Негативное педагогическое влияние социальной среды на личность подростка. Архив Научных Публикаций JSPI.
45. Dilshod, Y. (2020). Формирование педагогического свободомыслия как важная педагогическая проблема. Архив Научных Публикаций JSPI.